

## PROFESSIONAL TA'LIM JARAYONIDA FANLARARO UZVILIK VA UZLIKSIZLIKNI TA'MINLASH O'QUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Jo'rayev Muzaffarjon Mansurjonovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti "Fizika-matematika" fakulteti  
"Informatika" kafedrasida katta o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD) [juraevmuzaffar.kspi@mail.ru](mailto:juraevmuzaffar.kspi@mail.ru)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7189611>

Mamlakatimizda mehnat bozori va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni ilmiy-nazariy jihatdan hal etishda professional ta'lim muassasalarida mavjud mutaxassisliklarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan tuzilgan fan dasturlari mazmuni hozirgi zamon innovatsion va pedagogik texnologiyalari yordamida tegishli mutaxassislikka oid amaliy masalalarni yechish bo'yicha o'qitishni maqsad qilib qo'ygan. Bu esa professional ta'limda fanlararo integratsiyani ta'minlash imkoniyatlaridan unumli va maqsadli foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligi, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarining integral ta'lim tizimini qurishni tashkil etish besh bosqichni o'z ichiga olgan yaxlit, tizimli-tarkibiy yondashuv asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqich tushunib yetish (anglash), konsepsiya loyihasini ishlab chiqish, muassasa rahbarlari, mutaxassislar va ma'muriy ishchilar yig'ilishlarini, anjumanlarini tashkil etishdan iborat. Yuqori darajada normativ-huquqiy bazani o'rganish va mahalliy o'zini o'zi boshqarish asosida qo'shimcha qoidalarni qabul qilish integral ta'lim tizimini qurishni ta'minlaydi.

Integrativ ta'lim tizimida o'quvchi shaxsini rivojlantirishda bitta fan o'qituvchisi, guruh rahbari emas, balki ko'p sonli o'qituvchilar, tarbiyachilar va madaniyat xodimlari ishtirok etadilar. Bunday sharoitlarda talabaga oddiy pedagogik ta'sirlarni umumlashtirish sodir bo'lmaydi, balki yaxlit, kompleks yondashuv asosida, yosh inson shaxsining har tomonlama o'qitilishi, tarbiyalanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan integral sifat paydo bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir asosan sub'ekt-sub'ekt munosabatlarida, bilvosita ta'sir (ob'ekt-ob'ekt, ob'ekt-sub'ekt) munosabatlarida, integrativ muhitda, ijtimoiy sohada amalga oshiriladi. Bunday sharoitda o'qituvchi faoliyati pedagogik ta'sirlarning tashkilotchisi, korrektor va muvofiqlashtiruvchisi funksiyalariga xosdir.

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar amaldagi Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlari mazmunini zamon talablariga muvofiq doimo yangilab borish va takomillashtirishning tizimli monitoringini yo'lga qo'yish ehtiyoji borligini ko'rsatmoqda.

Biz tomondan fanlararo uzviylikni ta'minlash bo'yicha olib borilgan dastlabki izlanishlar natijasida hozirgi qo'llanilayotgan o'quv reja va fan dasturlarida hamda o'quv jarayonida quyidagi kamchilik va muammolar aniqlandi:

o'quv rejalarida gumanitar va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarning o'zaro o'qitish ketma-ketligi va davri o'rnatilmaganligi;

bakalavriatda o'qitiladigan ayrim umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari va o'quv materiallarining magistraturada o'qitiladigan mos fanlarda o'zgarishsiz takrorlanishi;

oliy ta'limning bakalavriat bosqichida umumkasbiy va ixtisoslik fanlardan dars beradigan professor-o'qituvchilar orasida o'zaro o'quv-uslubiy hamkorligi yetarli darajada emasligi.

Shuningdek, biz tomondan:

amaldagi o'quv fanlari dasturlarida talabalarni faol bo'lishga va tanqidiy fikrlashga undovchi va ularning qiziqishlarini o'ziga jalb qiladigan jihatlar yetarli darajada inobatga olinmaganligi (topshiriqlar, mashqlar va mustaqil o'rganishga qaratilgan o'quv materiallari);

ishchi o'quv dasturlarida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar yetarlicha o'z ifodasini topmaganligi;

ba'zi o'quv dasturlarida fanga oid bo'lmagan ma'lumotlarning tasodifan kiritilishi va eskirib qolgan adabiyotlarning tavsiya etilishi aniqlandi.

O'qitish samaradorligini oshirish o'quv jarayonini rejalashtirish va boshqarishga ko'p jihatdan bog'liq. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, o'quv rejasi va dasturlari mazmunida fanlararo va fanlardagi ichki aloqadorlik muammosi bu masalaga jiddiy e'tibor berishni taqozo etadi. Oliy ta'limining tegishli bosqichlari bo'yicha zarur o'quv materiallarini tanlash va o'qitishni ilmiy-uslubiy jihatdan tashkil etish jarayoni masalalarini, o'quv rejasi komponentlari o'rtasidagi mantiqiy aloqalarni tahlil etishga harakat qildik. Buning uchun esa, fanlararo va fandagi ichki aloqalar, fanning tuzilmaviy-mantiqiy asoslarini aniqlashga zarurat tug'iladi.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini fanlararo aloqadorlik asosida o'rganishning tuzilmaviy-mantiqiy sxemasini tahlil etish asosida ulardagi bo'limlar, mavzularni qanday ketma-ketlikda bayon etishni aniqlash, shuningdek, mutaxassislarni davr talabi asosida tayyorlashga tizimli yondashuvning o'rnini anglashga zamin yaratadi.

Umumkasbiy fanlar fundamental fanlar hisoblanib, gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar negizida o'qitiladi va ixtisoslik fanlar yo'nalishidagi bilimlarni kengaytiradi, chuqurlashtiradi hamda ixtisoslik fanlarini o'rganish uchun asos yaratadi. Ixtisoslik fanlarni o'qitish amaliy bilim va kuchli ishlab chiqarishga oid ko'nikmalar bilan bog'liq bo'lganligi sababli o'ziga xoslikni namoyon etadi. Talabalarni sohaga o'rgatishda ixtisoslik fanlar butunligicha shu kasb xususiyatiga mos tushishi, faoliyat turlari to'liq yoritilishi uchun umumkasbiy fanning davomi sifatida o'qitilishi va undan olingan bilim bu uchun asos vazifasini bajarishi kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi uzviyligini amalga oshirishda kasbiy-pedagogik fanlardan o'quv materiallarini ta'lim turlari va kurslar o'rtasida to'g'ri taqsimlash hamda ular orasida o'zaro uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda kasbiy-pedagogik ta'lim tizimining bosqichlari va kurslarida bilimlar mantiqiy jihatdan bir-birini to'ldirib borishi, o'quv predmetlari mazmuni (o'quv rejasi, o'quv dasturi) uzviyligini va uzluksizligini ta'minlashga qaratilishi, o'quv materiallarining bayonida ma'lum ketma-ketlik, yaxlit tizim va uzviylik bo'lishi lozim [1].

O'quv dasturlarida uzviylik va uzluksizlik muammosini tahlil qilib, shunday fikr bildirish mumkin: o'quv dasturlari uzluksiz ta'lim jarayonining mazmuni va yangidan yaratilgan darsliklarning mavzularini qamrabgina qolmasdan, balki o'quv muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bo'lajak yosh mutaxassislar oladigan bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi va darajasini ham belgilab beradi.

O'quv materiallarini tizimlashtirish va umumlashtirish orqali joriy qilinadigan uzviylik barchaga umumiylik mavqeyiga ega, chunki bilimlarning rivojlanish xususiyati uni har bir bosqichda amalga oshirishni ko'zda tutadi, masalan, yangi materialning avval egallangani bilan bog'lanishida. Uzviylik fanlar ichra, fanlararo va bosqichlararo aloqalarda o'zining ifodasini topishi kerak. O'qitishda tizimlashtirish va umumlashtirish orqali joriy qilinadigan ta'lim uzviyliksi kelajakda talabadan bosqichma-bosqich faol ijodkor olimni shakllantirish sharti bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.M.Juraev, Z.Y.Xudoyberdiyev Theoretical analysis of the continuity model of computer science and information technology in the System of professional education // European Scholar Journal (ESJ) // ISSN (E): 2660-5562 Vol. 2 №10.10, October 2021 // Page 61-64
2. M.M.Juraev, O.A.Qo'ysinov Description of the methodological basis for ensuring interdisciplinary continuity of the subject "Computer Science and

Information Technology” in vocational education // JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed // VOLUME 7, ISSUE 10, Oct. -2021

3. Tukhtaeva Z.Sh. Organizational – methodological inter-objective integrations in teaching special disciplines // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.7 No.12, 2019. – P. 136-139.